

Ona yurting - oltin beshiging

# TONG yulduzi

O'zbekiston bolalari  
va o'smirlarining gazetasi

## BIROZ KULDIRIB, BIROZ O'YLATAR

Kelajagimiz yoshlar qo'lida. Haq gap. O'sib kelayotgan yoshlarning shiojatini, ilmgan chanqoqligini, iqtidorlilagini ko'rganda, beixiyor shu so'zlar yodimga tushadi. Fotimaning ijodi bilan yaqinroq tanishganim sari ushbu so'zlarining isbotini topaman.

Fotima Hamroyeva 8-sinf o'quvchisi bo'lishiga qaramay, tinmay ijod qiladi. She'rlari kishini biroz kuldiradi, biroz o'ya toldiradi. Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga tavsiya etilgan Fotimaga kelgusida omadlar tilab, qalaming yanada o'tkir bo'lsin, deb qolamiz.

Baxshillo RAJABOV,  
«Gala-Osiyo ovozi»  
gazetasi bosh muharriri,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi.



Zamoniyli kiyimlarni  
yaxshi ko'ramiza!



**FILSIMLI OLAM**  
Hayotning har oni past-baland so'qmoq,  
Uning sinovidan mushkuldir o'tmoq.  
Astida yarilgan har bir odamzod,  
G'ami va kamiga andarmon oxod.  
Bu dunyo o'tkinchi demokratiq bekor,  
O'ylab ko'r, o'magay, o'chmagay ne bor?  
Buncha berahmsan ey, sirli falak?  
Bir kunda mag'lubdir hatto kapalak.  
O'tib toraverar yilu fasllar,  
Ornaga qaramay o'tar asrlar.  
Daryodek vaqt - zamon o'taveradi,  
Umr vidolashmay ketaveradi.  
Ey inson, ko'zingni ochgil kattaroq,  
Tilsimli olamga kirmoq bo'lgan choq.  
O'ksinma taqdiring emasku taxir,  
Dunyo g'am-anduhsiz bo'tmaydi, axir.  
Jahon shoirlari jahon haqida,  
Bitdilar ash'oru masal, aqida.  
Ularku abadiy qolmadi, ammo,  
Ezgu amallari yashaydi illo!

Fotima Hamroyeva,  
Buxoro viloyati, Buxoro tumani, Gala-Osiyo  
shahridagi 1-maktabning 8-sinf o'quvchisi.

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYI HARAKATI.


N: 44  
(66481)

2004 yil  
1 noyabr - 7 noyabr

Gazeta 1929 yil  
1 avgustdan chiga  
boshlagan

Xoja Ahror Valiy tavalludining 600 yilligiga

Aziz bolajonlar,  
mustaqilligimiz sharofati  
bilan Bahouddin  
Naqshbandiy, Imom al-  
Farg'oniy, Imom al-  
Buxoriy, Imom at-  
Termizi, Xoja Ahror Valiy  
kabi buyuk ajdodlarimizni  
tanib, bilib boryapmiz.  
Ular qoldirgan boy va  
betakror ma'naviy  
merosdan bahramand  
bo'lyapmiz. Ana shunday  
buyuk allomalar vorislari  
e k a n l i g i m i z d a n  
qalbimizda faxr va iftixon  
tuyg'ulari jo'sh urayapti.



## XOJA AHGOR VALIY KIM?

Xoja Ahror Valiy  
tavalludining 600 yilligi  
haqida tez-tez  
gapirilayotgan ayni  
kunlarda hammamizning  
ko'nglimizdan shunday  
savol o'tishi tabiiy. To'liq  
ismi Ubaydulloh Ahror  
Valiy bo'lgan bu allomaga  
«Xoja» unvonini  
qo'shib atashadi.

Bu bilan  
uning  
«Xojagon» va  
Naqshbandiya  
tariqatiga  
taalluqli  
eqanligini  
anglasak,  
«Ahror»  
deganda «Hurriyat» - qalb  
hurriyati va ahror  
hurriyatini o'zida mujassam  
etgan inson sifatidagi fazilati  
o'z aksini topadi. «Valiy»  
degani esa u kishining  
karomatlari va  
kashfiyotlaridan nishonadir.

Yaqinda Mirzo Ulug'bek  
tumanidagi o'quvchilar  
ijodiyot markazida ushbu  
tuman xalq ta'limi bo'limi  
hamda 241-maktabning  
o'qituvchi va o'quvchilari

ishtiropida bobokalonimiz  
tavalludlariga bag'ishlangan  
adabiy kecha bo'lib o'tdi.  
Toshkent Islom  
universitetining o'quv kafedra  
mudiri, professor Abdulhay  
Shar'iy Hamid Juzjoniy  
ishtirop etdilar. Xalqaro  
«Oltin meros»

ma'lumotlar berdilar. Shu  
maktabning tarix fani  
o'qituvchisi Robiya  
Rahmatullayeva ham faylasuf  
olimning ilmiy qarashlari  
beqiyos ekanligini ta'kidlab,  
dalillarkeltirdi. Maktab badiiy  
jamoasi hamda O'quvchilar  
i j o d i y o t  
markazining teatr-  
studiysi  
qatnashchilar  
kechaning  
yanada qiziqarli  
va maroqli  
o'tishiga hissa  
qo'shishdi.

Kech a  
mehmonlari va  
ishtiropchilar

O'quvchilar  
ijodiyot markazining  
«Ma'naviyat va ma'rifat»  
bo'limi rahbari Shirmonoy  
opa Asqarovaga alohida  
minnatdorchilik bildirdilar.  
Chunki bunday serma'no  
kechan tashkillashda  
Shirmonoy opaning  
xizmatlari behad edi-da.



jamg'armasi raisi  
Zarifa Eshmirzayeva,  
«Ma'naviyat va ma'rifat»  
markazining tuman bo'limi  
rahbari Halima  
Jumaniyozovalar tashrifi  
o'quvchilarni behad  
quvontirdi. Ular alloma hayoti  
va ijodi haqida to'lqinlanib  
so'zladilar, Naqshbandiya  
tariqatining insoniylik,  
mehnatsevarlik, poklik,  
halollik kabi fazilatlarini keng  
targ'ib qilishga hissa qo'shgan  
buyuk zot haqida noyob

Nargiza AKBAR qizi,  
Baro ESHCHANNOVA.  
Suratlarda:  
Tadbirdan lavhalar.  
Musavvir: Jo'ra Asron.

## VAFAN

Insonda bo'lsaydi mehrli tuyg'u,  
O'z xalqi, yurtichun chekardi qayy'ü.  
Uningchun bo'lsaydi vatan yagona,  
U haqda so'yildi jo'shib va yona.

Gar mendan so'rsangiz yurtim haqida,  
Scallab madhini so'yillardim uning.  
Sen ham shu go'shani astoydil sevsong,  
Serma'no, mazmuni o'tar har kuning.

Dilorom BOBODINOVA,  
Toshkent Davlat Texnika  
universitetining  
2 - bosqich talabasi.

## SURATGA TUSHAYLIK, DESAM...

Buvijonim Qunduzoy Xolovani mahallamizdag'i yoshu qari birdek sevib e'zozlashadi. Ular to'yu ma'rakalarda qo'ni-qo'shilarga hamisha bosh-qosh, eng yaqin maslahatgo'y. Buvijonimning donoligi, oqko'ngilliliqi, hamisha yetti o'lchab bir kesishlari bois tevarak-atrofimizda ahillik hukmron. Onajonim Mayjuda opa ham ularga qarata hamisha «qalbingiz mehr bulog'iga o'xshaydi-ya», deb ta'kidlaydilar. Bu gapdan buvimlar asta jilmayib qo'yadilar. Ularning yonlariga o'tirib, o'tgan-ketgan voqealarni jon-qulog'im bilan tinglayman. So'zlarida bir olam ma'no bor. Ularga doimo amal qilishga intilaman. Shunday oqila buvim borligidan qalbib g'ururga to'ladi. Bir kuni men buvimga: "Birga suratga tushaylik", - dedim. Buvim ko'ngan bo'ldilaru, ammo suratkashga meni olma, deb qo'yibdilar. Men o'sha suratni sizga yuboryapman. Buvijonim nega suratga tushishni xohlamasliklarini hech bilolmayman...



Jahongir ODILOV,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi  
48-maktabning 9-sinf o'quvchisi.

## ICHKI GO'ZALLIKDAN BAHRA OLAMAN...

Bugungi yoshlarimiz, ayniqsa, qizlarimizning yurish-turishlariga, gap-so'zlariga hech e'tibor beraganmisiz? Oqila, sipo, ibo va hayo bilan kiyinadigan qizlarimiz juda ko'p. Ammo, guruch ham kurmaksiz b o 'lma ganidek, ularning orasida kalta yubkalaru, tor shim kiyib olib o'zini o'ta zamnaviy deb hisoblaydigan qizlarimiz ham yo'q emas.

Qulqlaridagi q o 's ha - q o 's ha ziraklarni ko 'rib, ko 'zingiz qamashib ketadi. Qo'llaridagi uzuklarni ku aytmay qo'ya qolay. Ularning gap-so'zlariga qulqoq tutib, jamoat joylarida o'zlarini tutishlarini ko'rib, ranjib ketasan kishi. Kattalar nasihat qilgudek bo'lsalar, hech tap tortmay, bizda hozir demokratiya, oshkorlik, har kim xohlaganicha yashaydi, deyishadi.

Xo'sh, aslida rivojlangan g'arb mamlakatlarida biz taqlid qiladigan o'sha «demokratiya» jarayoni qanday kecharkin?..

Yaqinda Buxoro shahrida bo'lib, bu savolimga javob topgandek bo'ldim. Viloyatdagi litsey-

maktablardan birida dars berayotgan Silviya ismli amerikalik qiz bilan tanishib qoldim. Oddiygina, kamtarona kiyangan bu qiz Amerikadagi nufuzli universitet talabasi, o'ziga to'q, badavlat oila farzandi ekan.

-Silviya xonim, o'zbek qizlarining k i y i n i s h madaniyati h a q i d a q a n d a y fikrdasiz?- s o ' r a d i m undan.

To'g'risini a y t s a m , p a r d o z u a n d o z l a r qilib olgan, kalta yubka, tor shim kiygan qizlarigiz bizning qizlardan ham go'zal ko'rinishadi. Ammo, menimcha bunday kiyimda har qanday joyda, har qanday davralarda yurish noqulay. Bizning ayollarimiz bunday kiyimlarni zarur bo'lgan vaqtida, kerakli vaziyatlardagina kiyishadi. O'zini nozik didli deb bilgan xonim kiyinish va orolanish me'yorini bilishi lozim.

-Erkinlik haqidagi tushunchangiz, aniqrog'i, demokratiya degani ko'ngli tusagancha kiyinib, to'g'ri kelgan yerda ko'ngliga kelgan gapni aytaverish huquqini beradimi?

-Demokratik davlat qurish uchun tashqi qiyofani emas, ichki olamni tayyorlash kerak. Erkinlikni aqlan teran tushunib, mas'uliyatini his qilish kerak. Buning uchun esa juda ko'p o'qish, o'rganish lozim. Davlatning ravnaqni uning bilimli, dono

## Mening fikrim

y o s h l a r i qo'lida. Bizda badavlat, ziyoli oilalar moddiy boyliklari bilan emas, nodir san'at asarlari va noyob kitoblar bilan to'la kutubxonalari bilan faxrlanib yurishadi. Men ham kiyim-kechak va taqinchoqlarga pul sarflagandan ko'ra, ko'proq kitob sotib olishni afzal ko'raman. Tashqi qiyofaning maftunkorligidan emas, ichki olam go'zalligidan bahra olaman...

Ajabo, axir bu Qur'oni Karimning biz musulmonlarga bergen kalomi-ku. O'zga dingga mansub bu qiz unga chin dildan rioya qilsa-yu, biz uni bila turib, bilmaslikka olsak. Hozir Silviya oddiy qishloq xonodonlaridan birida yashayapti. Yaqinda ana shu xonadonga nufuzli firmaning prezidenti bo'lgan dadasi va onasi tashrif buyurib, xonadon so h i b l a r i g a m i n n a t d o r c h i l i k bildirishdi.

Shu o'rinda men bir voqeani so'zlab berishni

joiz deb bildim. Sinfdosha dugonamiz tug'ilgan kunini nishonlash uchun bizni uyiga taklif qildi. To'kin dasturxon atrofida miriqib dam oldik, dugonamizga ezgu tilaklar tiladik. Ammo ertasi kuni non-tuz yegan o'sha xonadonimizning k o 'r i m s i z l i g i - y u , j i h o z l a r i n i n g zamonaviy emasligi, o t a - o n a s i n i g kiyimlari oddiyligi haqida shivir-shivir gaplar tarqaldi. Bundan ko'rinib turibdiki, ayrim yoshlarimiz inson qadrini uning boyligi bilan o'lchashar ekan.

Chet ellarda bo'lib qaytgan ayrim yoshlarimiz, bizda demokratiya yo'q, deya ayuhannos solishadi. Oddiygina kiyinishni ham eplomasak, ulardek odil so'z aytishga qurbimiz yetarmikan?!

Shahnoza RAVSHANOVA,  
Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi 2 - mактабнинг 7 - «V» sinf o'quvchisi.

## KUZ TAROVAFI

Ko'kka bo'y cho'zib turgan, mo'ysafid terak,  
Sokin tebranadi, esar kuz shamoli.  
Shoxdarda sarg'aygan yaproqlar halak,  
Bog'da mevalarning tomadi boli.

Yomg'ir tomchilari tushar basma-bas,  
Yig'lab forig' bo'lar dardidan samo.  
Rohatba zish tuyular hayot bir nafas,  
Yerdan ko'tarilar namxush bir havo.

Yog'moqda kuzning ilk yomg'iri,  
Kirib kolar endi sokin kuz.  
Egnidadir sariq atlasi,  
Dehqon bobo xirmoningni tuz.

Yomg'irdan bo'shagan oppoq par bulut,  
Bir lahma shoshmagin, qarab olayin.  
Boshqa ko'p chigallik, yo'qolgan subut,  
Senla ketgum, sochimni tarab olayin.

Bog'larga tushadi sovuq tomchilar,  
Sarsari kezadi, kuzak shamoli.  
Yo'lakdarda xazon, yo'llanda xazon,  
Kuz kirib keladi ottin navoli.

## BOLALIK

Beg'ubor bolaligim singigan o'sha,  
Beg'ubor osmonda aylagayman sayr.  
Bolaligim o'tgan bu so'lim go'sha,  
Deganday tuyular u menga xayr.

Choksiz shodliklar va beg'am, betashvish,  
Orzular bog'ida sayr etgayman.  
Yoshlik yopqan olov termaydi sovish,  
Alangasi ichra yonib o'tgayman.

Moviy osmon bag'rini kezaman gohi,  
Bolalik yodila, betashvish tanho.  
Beg'ubor bag'riga singib ketgayman,  
Bu soniy dunyonni men tark etgayman.

Ma'suma XASANOVA,  
Uchqo'rg'on tumanidagi 24- umumta'lim  
maktabining 8-sinf o'quvchisi.

## ARALASH TEST

1. Bolalar konvensiyasi necha bobdan iborat?

A) 32 bobdan. B) 34 bobdan. C) 33 bobdan.

2. O'zbekiston bu konvensiyaga qachon qo'shilgan?

A) 1991 yilda. B) 1993 yilda. C) 1992 yilda.

3. «Bobur» so'ning lug'aviy ma'nos?

A) Yo'lbars. B) Sher. C) Bo'ri.

4. Boburning nechta farzandi bo'lgan?

A) 8 nafar. B) 9 nafar. C) 7 nafar.

5. U necha yoshda taxtga o'tirgan?

A) 12 yoshda. B) 11 yoshda. C) 30 yoshda.

6. Antarktidada yashoychi hayvonning nomini aniqlang:

A) Oq ayiq. B) Yo'lbars. C) Maymun.



Tuzuvchi:  
Matluba RO'ZIMATOVA,  
Namangan viloyati, Norin tumani.

Erta tongdanoq san'at saroyi yonida «Oq terakmi, ko'k terak, bizdan sizga kim kerak?», «Kamolot - men, Kamolot - sen» va yana allanimalar deb qiy-chuv qilayotgan o'g'il-qizlarni ko'rgan odamlarning ayrimlari ularni nim tabassum bilan kuzatishsa,

boshqalari, erta tongda bular nima qilishyapti, degandek yelka qisib o'tib ketishardi. Qo'llarida katta-katta sumkalari ko'tarib olib, avtobusning yo'liga intiq ko'z tikayotgan «Semurg» oromgohida bo'ladigan IV - omnaviy sayyor o'quv seminariga otlangan bu bolalar «Kamolot» va «Kamalak» sardorlari edilar. Nihoyat, avtobuslar ham

ko'rindi. Yaxshiroq

j o y g a  
q u l a y r o q  
o ' r n a s h i b  
o l i s h i l i n j i d a  
h a m m a m i z  
o ' z i m i z n i  
a v t o b u s l a r g a  
u r d i k . O ' z i m i z  
b i l a n o ' z i m i z  
b o ' l i b  
k e t g a n i m i z  
b o i s

biz bilan xayrashish uchun kelgan ota-onalarimizning, issiqroq kiyinib olgin, deya tayinlashlari ham qulog'imizga kirmasdi.

«Kamolot»da nima gap?

k e l d i k .  
Xonalarga

Uzoq yo'l bosib, nihoyat  
«Semurg» oromgohiga ham yetib

«Kamalak» bolalar tashkiloti

# SARDORLAR KENGASHDILAR

joylashib ulgurmayoq majlislarni boshlab yubordik. Hamma bir galikda ishlarni sardorlar bilan amalga oshirdik. «Issiq kulcha» nomli gazetamizning yangi sonini chop etishga ham ulgurdik. Tunni bedor o'tkazib, radioeshittirishlar t a y y o r l a d i k . Mehnatlarimiz natijasini sardorlar, hatto raislar ham yuqori b a h o l a s h d i , tezkorligimizga qoyil qolishdi.

Seminarlarga kelsak, sardorlar uch kun davomida o'qib-o'rganishdi, bilimlarini boyitishdi, shaharga yangi sardor ham saylandi. Tadbirning so'nggi kunida jami o'n olti nafar sardor kengash a'zoligiga saylandilar. Ularni yaxshigina sinov asosida tayinlashdi. Toshkent shahar



Gulchehra

Olimjonovaning ta'kidlashicha, bu yilgi murabbiylar safidan ilk sayyor seminarda qatnashgan oliy o'quv yurtlari talabalari ham joy olishibdi.

Qiziqarli o'yinlar, turli musobaqalar, sport bellashuvlariga boy bo'lgan

uch kunimizni qanday o'tib ketganini ham sezmay qolibmiz. Uch kun avval uchrashgan joyimiz - san'at saroyi yonida «Kamolot» va «Kamalak» sardorlari bilan iliq xayrashidik. Bolalarning suyanchi va tayanchi bo'lishga intilayotgan tashkilot ishlari omadlar tiladik.

**Malohat TO'XTAYEVA,  
«Yangi avlod» klubi a'zosi.  
Muxiddin ALIMBOYEV,  
talaba.**

-Sanobar, bizga so'nar ekan. Tunda osmonda ma'lumki, «Yulduzlar, kimsizlar?» nomli kitobingizdan bir qancha she'rlaringiz joy olgan. Nima uchun kitobingizni aynan s h u n d a y nomlagansiz?

-2002 yilda nashr qilingan ushbu Yulduzlarga bo'lgan qiziqishim shu savolga javob topa s h e ' r l a r i m n i kiritganman. Tabiatga qiziqqanim sababli, ona tabiatimizda uchraydigan har bir narsaga alohida e'tibor bilan qarayman. Yoz tunlari osmonga boqsangiz s o n - s a n o q s i z yulduzlarni ko'rasiz. Ayrim yulduzlar porlab-chaq nab ko'rinsa, ayrimlari juda uzoqdan nur sochayotgandek xira ko'rindilar. Ularni k o ' r g a n i m d a qalbimda behisob savollar tug'ilma boshlaydi. Yulduzlar qachondan beri osmonda nur sochishadi, ular bizdan qancha uzoqda, nima uchun ular faqat tundagina bizga ko'rindilar... Shularga o'xshash savollar menga tinchlik bermaydi.

-Eshitishimcha, har bir insонning o'z yulduzi bo'lar ekan. Inson umri tugab, ruh tanni tark etgan zamон shu insонning yulduzi ham

Uyimiz Amudaryo bo'yida joylashgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, ilk she'rimni ham Amudaryoga atab

deyiladi-ku.

-Ular qanday muammolar ekan?

farzand orasidagi tushunmovchilikdan yuzaga kelsa kerak. Sir emas-ki, xalqimiz orasidan y u z l a b o ' z b e k raqqosa hamda aktrisa qizlar yetishib chiqmoqda.

To'g'ri, ana shunday raqqosa qizlarni oynayi jahon orqali ko'rib, havas qilgan yoshlarda orzular tug'iladi. Shunday ekan, aziz ota-onalarimiz ham bizning qalbimizga quloq tutishsa. Orzularimiz amalga oshishida ozmi-ko'pmi yordam berishsa.

-Bugungi kun yoshlari qanday bo'lishini xohlaysiz?

-Men bugungi kun yoshlarini benuqson, har xil illatlardan yiroqda, kamida uchto'rt chet tillarini biladigan, eng asosiyi O'zbekiston nomini dunyoga tanitadigan sog'lom insonlar bo'lishini xohlayman. Albatta har bir o'zbek farzandi ilmga chanqoq bo'lsa, bu ilmni mukammal egallasa bizning vatanimiz ham oz fursatda rivojlangan mamlakatlar safiga qo'shilib, ulardan ham yuksakdan o'rin olishiga ishonchim komil. Men bunga ozgina bo'lsa-da, hissanni qo'shsam, o'zimni baxtli deb hisoblayman.

-Orzularingiz amalga oshishiga, muammolaringiz esa o'z yechimini topishiga tilakdoshman.

Suhbatdosh:  
Gulyuz BAHODIR qizi.

## SIRINGNI OCH, YULDUZIM

yozganman:

O'zing go'zal,  
Suvning shirin,  
Sonda azal  
Sir yashirin.

Amudaryo  
Onam mening,  
Mehri daryo,  
Bobom mening.  
Amudaryo, Amudaryo...

Yoshlar nigohi

Ilk she'rlarim o'zimga juda sayoz yozilgandek tuyuladi. Bu she'rim ham ilk tasavvurlarim mevasidi. Hozirgi yozayotgan she'r, maqolalarim birinchi yozganlarimdan farq qiladi.

-Ularning fargi nimada deb o'ylaysiz?

-O'zim o'ylamagan holda yoshlar muammofiga katta ahamiyat bera boshladim. O'ylab yurgan narsalarim albatta qog'ozga tushadi. Yoshlikda esa bunday muammolarni xayolingizga ham keltirmaysiz.

-Demak, asta-sekin ulg'ayapsiz. Ijodingiz ham siz bilan birga o'smoqda. Yoshlar muammofiga dedingiz. Muammo ham yosh tanlaydimi?

-Yoshlarni qiyinayotgan muammo - yoshlar muammo

-Hozirgi kunda yoshlarga juda ko'p shart-sharoitlar yaratilgan. Lekin bu sharoitlardan har kim ham foydalana ololmayotgani

muammo bo'lib kelmoqda. Uzoq qishloqlardagi maktablarda sport zallari-yu, kompyuterlar mavjudmi? O'qituvchilar saviyasi, bilimi talabga javob beryaptimi? Yoshlar o'z vaqtida maktabga borib bilim olyaptilarmi? Afsuski, bu savollarga men «Ha», deb javob bera olmayman. Chunki bugungi yoshlarning muammofigi ularning orzulariga yetishishi borasida uchrayotgan to'siqlaridan biridir.

Yoshlar orasida uchraydigan yana bir muammo tengdoshlarimdan ko'philigi o'z orzulariga ota-onalari qarshilik qilayotganidan nolib qoladilar. Ota-onalarimiz qizlarining raqqosa, aktrisa bo'lishlariga qattiq qarshilik ko'rsatadilar. Qanday qilib bo'imasin bu orzularini chil-parchin qilishga urinadilar.

-Ota-ona o'z farzandiga hech qachon yomonlikni ravokor maydi. Ular uzoqni ko'ra biladilar. Menimcha, bunday muammolarni oiladagi noqulay vaziyatdan, ya'ni ota-ona va

(Davomi. Bosh o'tgan sonlarda)

Hirolik pahlavonga qirmizi zarbof to'n y o p i l g a c h , shahzoda unga yuzlandi:

-Barakalloh, xo'p xursand qilding!

Xaloyiq olqishi tinmaydi, pahlavonga chaqa-tanga berishardi, hayajonda chophonlarini yechib yopgan yigitlar ham bor edi. G'iyo'siddin Kichkina bir tillo tangani Alisherga tutqizdi, Alisher sevinch va ishtiyoyq ila odamlar orasidan aylana yo'l topib, pahlavon oldida to'xtadi va ta'zimda bukilib, ikki qo'llab tangani uzatarkan, dedi:

-Zafaringizni qutlaymiz!

Atrofdagilar bolaning odob va zakovatidan hayratda edilar.

-Ofarin, ajoyib o'g'lon ekan!-dedi kimdir.

Pahlavon Alisherni yelkasidan quchdi.

Shu payt bag'dodliklardan to'rtinchisi o'rtaga tushdi. Birdan xalqning nafasi kesildi, maydonga sukonat cho'kdi. Baland bo'yli, bahaybat gavdali bag'dodlik pahlavon maydon o'rtasida bir tunj haykal kabi turardi. Vazirlar, beklar shivirlasharkan, shahzoda sekin dedi:

-Tavba, bundayini aslo ko'rmasandurmen!

-Haybati misoli dev, mudhish!- dedi bosh vazir.

Shu on maydonga uning raqibi chiqdi. Bu pahlavonnig shuhratini eshitmagan kishi yo'q, u samarqandlik, butun Turkiston o'kasida tengi yo'q,

hanuz yelkasi yerga tegmagan bir pahlavon edi.

Hirof aholsi yengil tortdi: «Bor ekan-ku», dedi ko'plar.

Alisher ham behad sevingan edi, u otasining pinjiga kiribroq o'ltirdi.

«Hirotdan Hindikushgacha cho'zilgan buyuk o'lkamizning



o'ziga xos shavkati, dabdbasi, an'anasi bor», deb o'ylardi Alisher o'zicha.

Maydondagi pahlavonlar salmoqli harakatlari bilan bir-birlarini sinashga kirishgan edilar. Ularning kuchlari tengligini tomoshabinlar payqagan. «Arabning payi pishiq, olishishi chaqqon», derdi ba'zilar, «yo'g'-e, bizning pahlavon chakki emas, ko'ring, belida gap ko'p, bilagi zarbdor», deyishardi boshqa birovlar. Alisher bu so'zlarning hammasini uqib o'ltirardi.

Pahlavonlar endi astoydil

olisha boshladilar. Qizg'in, zo'r kurash bo'ladigan ko'rindari.

-Bizning mamlakat pahlavonlari aksariyat quvvatda benazir va qomatdor bo'ladilar, deya g'urur-la shivirladi yonidagi vazirga shahzoda. Samarcandlik pahlavonimizga razm soling, xushqomat, hamlador...

-O'lkamizda zo'r pahlavonlar bor, hazratim, -deya ta'zim ila shahzodaga murojaat etdi sarkadalardan biri, ular kurash hadisini yaxshi bilurlar. Afsuski, Ulug'bek Mirzoning dillari yolg'iz ilmga bog'lanib qolmish, sipohi pahlavonlar bilan ishlari yo'q. Bir on sukut etgach, tovushsiz shivirladi -Samarqand vodiysini bir kun tangrim shahzodamga ato qilg'ay.

Alovuddavla ichdan sevingan esa-da, siltab javob qildi:

-Hazrat Ulug'bek podshohi olamdirki, ellar, qavmlar, barchasi uning muborak ilkida bo'lmog'i lozimdur. Bir zum sukut etgach, davom etdi. Hazrat tilsimot olamiga g'arq bo'lmishki, albatta, bu islam diniga xi洛. Astag'firullo, gunohi azim!

-Shahzodam, amiri buzurg Temurning evarasi, gavhari charog'onidursiz, -dedi shahzodaning yaqin sipohlaridan biri. Jannatmonand Samarqand sizning nasibangizdir.

Shahzodaning yuzi yorishib ketdi-yu, ammo sukut saqladi. Kurash dahshatli boradi. Olomon zo'r hayajonda, Alisher zavq ila berilib kuzatar, goho otasining qo'lini siqib, nimadir deb qo'yari edi.

-Mehmon ham, bizning pahlavon ham misoli dev, dada, kuhrash mundoq mudhush bo'lurm... -Kichiklikda ko'p ko'rganmiz, o'g'lim, -deya otasi, -har bir pahlavonlar bor ediki... Ba'zilari olamdan o'tdi, ba'zilari munkillab yuribdi. Ha, bular ham chakki emas.

-F a h m i m c h a , pahlavonlarning eng zo'ri shulardir, -dedi Alisher. Shu payt xaloyiq dengizida nogoh bir to'lqin paydo bo'ldi: «Shahzoda ketdilar, shahzoda ketdilar», degan gap bir lahzada og'izdan-og'izga tarqaldi. Yangi xabarni barcha eshitgan edi. Chopar kelib shahzodaga xabar yetkazgan edi: Qishloqlarda ahli kishtu kor qo'zg'olon ko'tarmish, falon emish, fiston emish...

G'iyo'siddin darhol borib, bir necha beklar, barloslar bilan gaplashdi-da, Alisherning oldiga qaytdi. -Yur, o'g'lim, ketdik. G'iyo'siddin Kichkina Alisher bilan tartibsiz harakatdagi olomon orasidan turtina-turtina bazo'r ot oldiga yetib borgach, shoshilib uni

qoziqdan yechdi va o'g'lini ko'tarib, egar ortiga o'tqizdi, o'zi yengil irg'ib otga mingan hamon, yo'rg'a ot yo'lga tushdi. G'iyo'siddin uyga yetgach, Alisherni tushirdi-da, oshig'ich holda saroyga jo'nadi.

Alisher eshikdan kirgan hamon onasiga kurash taassurotlarini gapirmoqqa shoshur edi.

-Afsus, qizg'in kechayotgan kurash zumda buzildi-da, qishloqlar notinch emish. Ha, shahzoda darhol o'rdaga jo'nab qoldi...

Suhbat ustiga kelib qolgan chol beparvolik ila qo'l siltadi: -Mayli, azaldan shunday, dehqon qo'zg'olon ko'taradi, podsho ezib tashlaydi.

Alisher yangi taxtachani qo'ltig'iga mahkam qistirgan, shod va mag'rur, uch qadamcha ilgarilagan holda otasining oldida borur edi. Onasi ixlos bilan cho'miltirib, pokiza kiyintirgan. Oppoq salla, mullayoqa ko'ylak ustidan yengil adres to'n kiygan, oyoqlarida etik. G'iyo'siddinbek ham soddagina, kamtar kiyangan. Ustida uzun yaktak, katta salla, oyog'ida mahsi-kafsh, katta dasturxonq tugilgan bir talay non va qatlamani ko'tarib borar edi. U ham shod, ruhi ko'tarinki. Bolasingin salohiyatiga shubhasi yo'q, imoni komil.

(Davomi bor.)

## ALISHERNING YOSHLIGI

OYBEK

(Davomi. Bosh o'tgan sonlarda)

Hirolik pahlavonga qirmizi zarbof to'n y o p i l g a c h , shahzoda unga yuzlandi:

-Barakalloh, xo'p xursand qilding!

Xaloyiq olqishi tinmaydi, pahlavonga chaqa-tanga berishardi, hayajonda chophonlarini yechib yopgan yigitlar ham bor edi. G'iyo'siddin Kichkina bir tillo tangani Alisherga tutqizdi, Alisher sevinch va ishtiyoyq ila odamlar orasidan aylana yo'l topib, pahlavon oldida to'xtadi va ta'zimda bukilib, ikki qo'llab tangani uzatarkan, dedi:

-Zafaringizni qutlaymiz!

Atrofdagilar bolaning odob va zakovatidan hayratda edilar.

-Ofarin, ajoyib o'g'lon ekan!-dedi kimdir.

Pahlavon Alisherni yelkasidan quchdi.

Shu payt bag'dodliklardan to'rtinchisi o'rtaga tushdi. Birdan xalqning nafasi kesildi, maydonga sukonat cho'kdi. Baland bo'yli, bahaybat gavdali bag'dodlik pahlavon maydon o'rtasida bir tunj haykal kabi turardi. Vazirlar, beklar shivirlasharkan, shahzoda sekin dedi:

-Tavba, bundayini aslo ko'rmasandurmen!

-Haybati misoli dev, mudhish!- dedi bosh vazir.

Shu on maydonga uning raqibi chiqdi. Bu pahlavonnig shuhratini eshitmagan kishi yo'q, u samarqandlik, butun Turkiston o'kasida tengi yo'q,

## AYOL HAQIDA SO'

Mushtipar ham o'zing, buyuk ham o'zing,  
Kuyinchak ham o'zing, kuyuk ham o'zing...

Abdulla ORIPOV.

Insoniyat yaralganidan beri qanchadan-qancha shoir, hofiz, san'atkor kelib ketdi. Ular so'z, ohang sehri ila dillarni rom aylab o'tdilar. Lekin ularning barchasi muqaddas zot sanalmish Ayolning qiyosi, unga loyiq tashbehni topa olmadilar. Shuning uchun eng shirin kalom «Ona» degan so'z bo'lsa kerak. Eng aziz va tabarruk narsalarini ham onaga qiyoslab ataymiz: ona - tabiat, ona - tuproq, ona - Vatan...

Kichkinagina jussasiga tog'day bardosh, metin iroda, guldan-da nozik jon, fidoyilik, bag'rikenglik mehr-shavqatni mujassamlashtira olgan zot - Ayol! Seni tog'day bardoshli dedim. Agar o'sha bardosh bo'lmasa edi, yarim asrdan oshiq vaqtidan beri jangohda ketgan yoringni kutib, uning yo'liga termularmiding? U tishlab ketgan, uyingning to'rida hanuz egasini poylab turgan nonni shunchalik asrab-avaylarmiding?

Ayol! Seni metin iroda egasi deb atadim. Tong yorishmay o'rnidan turib, nonlar yopib, qorako'zlarga rizq ularshgan, so'ng dalaga yo'l olib, kun bo'yli tinmay mehnat qilgan, uyg'a

qaytib kir-chir yuvgan, osh-ovqat tayyorlagan, «mayda-chuyda» larga o'ralashib, oftobni ham kuzatib qo'yan oddiy ayolni yana qanday atash mumkin?

Ayol! Seni guldan-da nozik dedim. Shuncha tashvishni ko'tarishga kuchi yetgan vujuding vaqtি kelsa bir tomchi ko'z yoshingni ko'tara olmaganligi rost. Bir og'izgina aytilgan shirin so'z chekkan butun zahmatlaringni yuvib ketishi ham hech kimga sir emas. Sen borgan joy jannatday yashnaydi, nurga to'ladi:

*Billur binafshalar silab poyini,  
O'psa o'sma qo'yan qoshi yoyini,  
Rayhonga burkagan borgan joyini,  
O'zbek ayolisan, O'zbek ayoli.*

Ayol! Seni fidoyi deb atadim. Bir etak bolang bo'la turib, yana qanchalar go'daklarni o'z bag'ringga olib, onalik mehringni bera olding. Ularning o'ksik qalbini ko'tarib, boshida parvona bo'lding. Farzanding dardga chalinsa, sening yuraging darz ketdi. Beshik tebratgan qo'llaring aslo horimadi. Aytgan

allalarin tunlari

tonglarga bekamu-ko'st uladi. Bolangning tashvishi uchun o'z oroming, orzu-havasingdan kechganiningni yana qanday atash mumkin?!

Seni qancha ta'rif etsam, ozlik qiladi:  
*Shunchalar mo'tabar ekan ostona,  
Qadaming ming bora o'padi ona.  
Sog'inib ketaman, oxir yetaman,  
Ostona misoli xizmat elaman.*


Sen mushfiq Ona, mehribon singil, kuyinchak opa, vafodor yorsan. Sening mehring mangu muzliklarni ham eritishga qodir. Qahring esa tog'larni ham larzaga keltira oladi. Eng mashhur allomalarining ham dastlabki ustozi ham sensan. Shuning uchun ham jahonga Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Navoiy, Boburdekk zotlarni bera olding. Malika bo'lib yurt boshqarding, Vatan deb ko'ksingni qalqon qilding. Har bir xalq ayollarini o'z udumlaridan kelib chiqqan holda izzat qiladi. Kimdir yaltiroq liboslarga burkangan ayolni baxtli deb biladi, yana kimdir qomati raso ayolni eng ko'rkm

deb tan oladi. Bizning xalqimiz esa bag'riga go'dakni bosib, unga hayot baxsh etgan ayolni eng go'zal deb biladi. Boylik uchun emas, farzandining salomatligi, kamoli uchun yelib-yugurgan onani ko'klarga ko'taradi. Uning bardoshi, mehri oldida bosh egadi.



Jannat onalarimiz poyida ekan, ularni asrab-avaylaylik, farzandlik burchimizni ado etaylik.

Nuriddin HAYDAROV,  
Umida SHODIYEVA.



## O'ZBEGIM O'G'LONLARI

Jurtim tinchligining posbonlarisiz,  
Algomish-u Ravshan dostonlarisiz.  
Sizla yashnamoqda bo'stonlarimiz,  
O'zbeginning jasur, mard o'g'lontari.



Temur tuzukdarin unutmay har dam,  
Chegarada tashlar mardona qadam.  
Qasamin oqlaydi, yurtin saqlaydi,  
O'zbeginning jasur, mard o'g'lontari.

Yurtning non-tuzini muqaddas biliq,  
Vatani elini qalbga jo qilib,  
Chinorday umrlar ko'rishsin albat,  
O'zbeginning jasur, mard o'g'lontari.

Botir askartardir madadkorimiz,  
Shu sabab osuda hur diyorimiz.  
Sizla gurkiryadi istiqdolimiz,  
O'zbeginning jasur, mard o'g'lontari.

Madina QODIROVA,

Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani.

## ARIQDAN QANDAY O'TDI?

Maktab partasi, o'quvchilik davrlari, qadrdon sinfdoshlarning bahsmunozarali inson qalbida bir umrga o'chmas xotira bo'lib qolar ekan. Esimda, 8-sinfda o'qirdik. O'sha yili kuz ancha sovuq kelgani bois barcha maktablarning yuqori sinflarida o'qish vaqtincha to'xtatilib, barcha o'quvchilar paxta terimiga safarbar qilindi. Terimning dastlabki kunlaridan qanday mehnat qilishi, nima hammadan bo'yli uzun bo'lishiga qaramasdan hecham paxta terolmas ekan. «Menga ham ozroq paxta terib beringlar», degancha nuqul qizlarga yalingani-yalingan. Salima pardozni xush ko'rarkan. Biram bezanadiki, jo'yakning adog'igacha borsak ham uning pardozi qutisi qo'lida bo'ladi. Bahodir ancha chaqqon ekan, terimda hamisha ilg'or. Lola bo'lsa ariqdan sakrab o'tlmaydi. Unga hamisha dugonasi

Inobat yordam beradi. Hatto kichkina ariqchadan ham qo'lidan tortib o'tkazib qo'yadi. Har gal dastlab Lolani, so'ngra etagidagi tergan paxtasini ariqdan olib o'tayotganida unga qarab barchamiz kulib qo'yamiz. Inobatga ham qiyin-da.

### Paxtazorda uchrashamiz

Xuddi onasi kabi doim dugonasini yetaklab yursa. Bir kuni tushlikka yaqin hammamiz uyum-uyum paxtalarimizni etaklarimizga joylab oqanimizcha «telejka» tomon yo'lga tushdik. Bexosdan kattakon itning biz tomonga vovullaganicha chopib kelayotganini ko'rib, shoshilib qoldik. Qarshimizdag'i kattagina ariqning suvi ko'p bo'lishiga qaramasdan, itdan qochish uchun paxta to'la etaklarimizni ko'targancha ariq tomonaga yugurdik. Ne ko'z bilan ko'raylikki, Lola dugonamiz allaqachon ariqning u tarafida turardi. Inobat esa bizdan orqaroqda yugurib kelardi.

Nariqi tarafga o'tib oqanimizdan so'ng, hammamiz Lolani atrofini o'rab olib, uni turkilay boshladik. Iya, sen o'zing ariqdan sakray olarkansan-ku, ajablanib so'rardim



qizlar bir-biriga gap bermasdan. U bo'lsa, tavba, o'zim ham buni bilmasdim, qanday qilib ariqning bu tomoniga o'tib qolganimga hayronman, derdi. Qopag'on it qo'rquvni yo'qtgandi.

Mohinur HAYDAROVA.

Aziz tengdoshlarim, siz o'z maktabingiz tarixini bilasizmi? «Ha», deysizmi? Men esa avval tahsil olgan maktabim tarixini bilmasdim. Yaqinda uning tarixi bilan qiziqib ko'rdim. Shu bahonada maktab qurilishi, uning gullab-yashnashiga ozmi-ko'pmi mehnatlari singgan, umrini, bor bilimi va tajribasini bolalar tarbiyasiga bag'ishlagan, endilikda uzoq yillik samarali mehnatlari va farzandlari rohatini ko'rayotgan ustoz-murabbiy Nazirvoy ota Isroilov bilan tanishib, hamsuhbat bo'ldim.

binosi toming chala yopilganiga 16 yildan oshdi. Eski maktabning esa ahvoli «og'ir». Davr talabiga umuman javob bermaydigan bu maktabda sinf xonalari yetishmasligi bois o'quvchilar uch smenada o'qitiladi. Sport zali kichkina, sport maydonchasi yo'q. Oshxona ham talab darajasida emas. Qaniydi, yangi maktab binosini tezroq bitkazsak...

Nazirvoy aka «ko'nglimdag'i armonim shu!», deya qo'l qovushtirib o'tirganlari yo'q. Maktabning hozirgi rahbari bilan

## KONDAYLIQDA BIR MAKTAB BOR

Bolaligi suronli urush yillagini to'g'ri kelgani bois 12-13 yoshli chog'laridanoq ham o'qib, ham ishlaganlarini, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutini muvaffaqiyatli tamomlab, yo'llanma bilan Surxondaryoning Denov tumanidagi 27-o'rta maktabda o'qituvchilik qilganlarini bilib oldim.

Ish faoliyatini Bo'stonliq tumanidagi o'zi tug'ilib o'sgan Soylit qishlog'idagi «Birlik» nomli o'rta maktabda davom ettirgan Nazirvoy aka dastlab ilmiy mudir, keyinchalik shu maktabga direktor bo'lgan ekanlar. Ustoz o'quvchilarga matematika fanidan saboq berish bilangina cheklanib qolmay, yangi maktab binosi qurilishiga ham boshchilik qilganlar. 1964 yilda qurilishi boshlangan 536 o'rinni maktab binosi 1972 yilda ishga tushirilib, Mirzo Ulug'bek nomi bilan atala boshlanibdi. Yil sayin maktab o'quvchilari soni ortgandan orta borgani bois, yana 640 o'rinni qo'shimcha zamonaviy maktab binosiga ehtiyoj sezilgan. Qarabsizki, Nazirvoy aka boshchiligidagi 1176 o'rinni maktab binosi bunyod bo'libdi.

Tinib-tinchimas ustoz Xondayliq qishlog'idagi kichkina va talabga umuman javob bermaydigan Hamza nomli 10-o'rta maktabga rahbar bo'lib o'tib, bu yerda ham yangi maktab qurilishi ishlarini boshlab yuboradilar...

Endilikda ko'plab shogirdlari, farzandlari, nabiralarini ardog'ida qarilik gashtini surayotgan otaxonidan ko'ngillaridagi ushalmagan orzu-armonlari haqida so'rardim:


-Farzandlarimdan, hayotimdan juda mammunman, deya so'z boshladilar ustoz. - Lekin birgina ushalmagan orzu-armonim bor. U ham bo'lsa, mablag' yetishmasligi tufayli Xondayliq qishlog'idagi maktab binosi qurilishining chala qolgani. 1296 o'rinni mazkur maktab

birga Bo'stonliq tuman hokimligiga qatnashmoqda. Otaxonning o'rinni talabini qondirish maqsadida tuman hokimi muovini shu masalada poytaxt Xalq ta'limi boshlig'i va boshliq muoviniga ham uchrashdilar.

Zero, yurt boshimiz I.A. Karimovning xalq deputatlari Toshkent viloyati kengashining 29 yanvar, 2004 yil bo'lib o'tgan navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqlarida Bo'stonliq tumanidagi qurilishi bitmay qolgan 5 ta maktabni (Xondayliqdagi maktabni ham) zamonaviy, sport inshootlariga alohida e'tibor bergen holda qurib bitkazish kerakligini ta'kidlagandilar...

Xondayliqlik bolajonlarga yaqin kunlarda yangi maktab binosida o'qish nasib etishiga biz ham umidvor bo'lib qolamiz. Bugungi kunda o'zining 75 yoshini qarshi olayotgan keksa ustoz-murabbiy Nazirvoy akaning so'zlariga quloq tutib, u kishiga astoydil havas qildim. Biz yoshlar ustozdan bilim olibgina qolmay, g'ayratli va shijoatli bo'lishni, yurt dardini o'z dardi deb yashashlikni o'rganishimiz lozim ekan.

Umida MURODOVA,  
Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani,  
Soyliq qishlog'idagi 11 - maktabning  
7 - «B» sinf o'quvchisi.



**Tong**

Oppoq tong otmoqda barglarda shudring,  
Qizarib ko'rinar tog'larning boshi.  
Sariq yaproqlarim turar chayqalib,  
Kazonlar yuzida ko'zlarin yoshi.

Mayin sabo esar yuzimni silab,  
Qachon kolar ekan ko'klamning isi.  
Tongda sen quyoshni qarshi ol, do'stim!  
Odamning kelmaydi bundan ketgisi.

Fabiat, tongda sen buncha go'zalsan,  
Nedandir bundayin hikmat, tarovat.  
Uyg'onish ontari shuning uchunni,  
Bunchalar latofat, bunchalar rohat!

Gulizod VALIYEVA,  
Toshkent viloyati, Quyi Chirchiq tumani  
26-maktabning 9-sinf o'quvchisi.

# MASHAQQATSIZ MAQSADGA YETIB BO'LMAYDI

-Umida, siz juda mas'uliyatli, shu bilan birga sharafla bir kasbni tanlabsiz. Bu kasbni tanlashingizga nima turtki bo'lgan? Yoki oilangizda shifokorlar bormi?

-Oilamizda shifokorlar yo'q. Oyim bos hisobchi, dadam esa tadbirkorlar. Oyimning aytishlaricha, men bolaligimda juda ko'p kasal bo'lgan ekanman. Shunda oyijonim, sen katta bo'lsang, albatta shifokor bo'lasan, baribir oilada bitta shifokor bo'lgani ma'qul, degandilar. Ularning gapi bilan shifokor bo'lishni ko'nglimga tugib qo'ygandim. Mana, orzuimga yetishdim, desam ham bo'ladi.

*-Shifokorning oldiga odamlar dardiga malham so'rab kelishadi. Dardmand odamni o'lim yoqasidan qaytarib olgan fidoyi insonlarni ham bilamiz. Sizning ish faoliyatizingizda ana shunday tasodif bo'lib qolsa, nima qilardingiz?*

-Shifokorning qalbi kiygan oq xalati kabi oppoq bo'lishi kerak. Bilasizmi, sizning bir og'iz gapiningizga intiq bo'lib yotgan bemorga avvalo shirin so'z aytishingiz, uning ko'nglini ko'tarishingiz kerak. Keyin esa dori-darmonlar yordamida uni oyoqqa turishga yordam

berish mumkin bo'ladi.

*-Tibbiyot sohasida o'qish bilan birga she'rilar ham y o z i b turarkansiz...*

-Ha, she'riyatga yoshligimdan qiziqaman. Zulfiya she'riyatini sevib o'qiyan. Ularda odamni o'ziga tortadigan qandaydir kuch, joziba bor. O'zim yozgan she'rarga kelsak, men «Munavvar tong», «Yoshlar ovozi», «Mahallamiz bolalari» va «Tayanch» ko'rsatuvlarida she'riy chiqishlar qilganman.

Ko'pincha «Tayanch» ko'rsatuvida soliq haqidagi she'rularim bilan qatnashib turaman.

*-Demak, soliqdan ham oz-moz xabaringiz bor ekan-da?*

-Maktabda o'qib yurgan kezlarimda ham jamoat ishlarida faol qatnashib turardim. «Huquqingizni bilasizmi?», 2003 yilda «Obod mahalla yili» munosabati bilan «Sog'lom muhit» mavzularida o'tkazilgan qator ko'rik-tanlovlarda qatnashib, g'olib bo'lganman. Konstitutsiya fanidan o'tkazilgan olimpiadalarda faol ishtirok etib, faxrli o'rinnarni egallaganman. Shuningdek,

«Tayanch» ko'rsatuvida telemusobaqa g'olibasi

bo'lgan man. Kollejimizda ham deyarli hamma bayram larga senariylar tuzib, o'quvchilarga y a n g i she'rularimdan o'qib beraman.

*-Qiz bola uy*

chiqishimda, ijodiy faoliyatimni yuzaga chiqarishimda kollejimizda ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha rahbar muovini Xolinisa opa Tojixo'jayeva, Nurinisa opa Kalanova, Munira opa Nizomovalarning xizmatlari bor. Men aziz ustozlarimga fursatdan foydalanimga minnatdorchilik bildiraman.

*Epli qizlar*

kasba o'zimni bag'ishlagan ekanman, insonparvarlik, fidoyilik, shirinso'zlik kabi oliv fazilatlar sohibasi bo'lishni, yana har bir o'zbekistonlik qiz orzu qilgan Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lishni istayman. Bu yo'lda tinmay izlanishga, turli mashaqqatlarni yengishga tayorman.

*-Suhbatimiz so'ngida she'rلaringizdan o'qib bersangiz.*

-Men «Yangi oy» deb nomlangan she'rimni o'qib bermoqchiman. Agar u tengdoshlarimga yoqsa, boshim ko'kka yetardi.

*Quyosh nurlariga ko'mitib asta,  
Qiz'ish tusga burkandi shu on.  
Oridan bulutlar borar ohista,  
Qayda oshigon, bilmay dargumon.  
Quyoshni kuzatib tog'lar ortiga,  
Qaytishdi bulutlar yana moziya,  
Quyosh bilan birga boldi yorug' kun.  
Borliqni qamrab olayotir tun.  
Keyin asta tun sharpasida  
Ko'kka chiqib keldi yangi oy...*

*-Mazmunli suhbatining  
uchun tashakkur. Barcha  
niyatlarining yo'ldoshingiz  
bo'lsin!*

Ozoda TURSUNBOYEVA  
suhbatlashdi.



*Tengdoshingiz Rustamova  
Umida Avazovna - P.F.Borovskiy nomli  
Toshkent shahar tibbiyot kollejida davolash  
bo'limining 2-bosqich talabasi. Uning orzu-  
umidlari mo'lko'l. Uhaqda ko'proq bilishni  
istasangiz, marhamat, bizning  
suhbatimizga qo'shiling.*

ishlarida ham epli bo'lishi  
kerak, siz o'qish, turli jamoat  
ishlaridan ortib, uy ishlariga  
ham yordam berasizmi?

-Ha, albatta, o'zim turli shirinliklar pishirishga juda qiziqaman. Men pishirgan tort va shirinliklarni uyimizdagilar maqtab yeyishadi. Bundan tashqari, uy yumushlarida ham oyimga yordam berib turaman.

*-O'qish, ijod, uy ishlariga  
bularning hammasi sizga  
og'irlik qilmaydimi?*

-Mashaqqatsiz maqsadga yetishib bo'lmaydi. Meni ham qator ko'rsatuvlarda

intiluvchan, o'z maqsadlari yo'lidan og'ishmaydigan, zakovatli, izlanuvchan, zamon bilan hamnafas bo'lishimiz, o'tmishdagi ajodolarimiz Amir Temur, A.Navoiy, Ibn Sinolarga munosib avlod bo'lishimiz kerak, deb o'layman.

*-Kelajakdag'i orzularingiz  
bilan o'rtoqlashsangiz...*

-Eng avvalo yaxshi shifokor bo'lish. Chunki insonni yaxshi kunlarida xizmat qilishdan ko'proq og'ir kunlarida yelkadosh bo'lish, uning dardiga darmon bo'lish shifokordan sabr-bardosh, mashaqqat talab qiladi. Men shu

## «DO'STLIK QUYOSHGA O'XSHAR»

MOHINUR IMOMOVA  
**DO'STLIK  
QUYOSHGA  
O'XSHAR**



Kitob - insonning eng yaqin do'sti hisoblanadi. Kitob o'qigan insonning dunyoqarashi keng, fikrlash qobiliyati ham o'zgalardan ajralib turishi hech kimga sir emas. Siz aziz bolajonlarga tengdoshingiz Mohinur Imomova «Do'stlik quyoshga o'xshar» deb nomlangan kitobini tortiq qilmoqchi. Ona tabiatga mehr, ota-onaga hurmat, vatanni sevish

*Kitob javoningizga  
kabi hislar bilan yo'g'rilgan bu she'riy  
kitobcha uning ilk to'plamidir.*

Mohinur Imomova Parkent tumani 44-maktabning 8-sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Mohinurning qator she'rulari «Ma'rifat», «Adolat», «Parkent tongi», «Tong yulduzi» gazetalarida e'lon qilingan. Mohinurning bu kitobchasi sizga ham yoqishiga ishonchimiz komil.

Quyida uning shu kitobchadan joy olgan «Do'stlik» nomli she'rini o'qiyisz.

*Do'stlikka nima yotsin,  
Do'stlik qanday soz.  
Kimning do'sti ko'p bo'lsa,  
Ko'rur ko'p e'soz.  
Igna bilan iplar do'st,  
Doira bilan tor.*

*Suvlar bilan anhor do'st,  
Gul bilan bahor.  
O'rtaq erur yulduzlar,  
Oy, Yer va Oflob.  
O'quvchining eng yaxshi,  
Do'stidir - kitob!*

Venera TURDIYEVA,  
Parkent tumani, Zarkent qishlog'idagi  
15-o'rta maktab o'quvchisi.

## GULGA TO'L SIN DALALAR



*JINCHLIK  
Finchlik bo'lsin bargarov,  
Hech ko'rmang zulm, oxor.  
Baxtli bo'lsin bolalar,  
Gulga to'l sin datalar.*

*Finchlik bo'lsa hukmron,  
Yashnaydi yurtim har on.  
Finchlik bo'lsa bargarov,  
Olamba kezar bahor.*

Tengdoshingiz Malikxon Usmon Nosir nomli 40-o'rta maktabning 10-sinfida o'qiydi. So'lim tabiatni, rang-barang gullarni, sayroqi qushlarni jon dilidan sevadi. Buning boisi bor, albatta. Chunki u go'zal Qibrayda yashaydi-da. Malikaning sodda, ravon fikrlar talqinidagi misralari esa bizni kiydirib to'ydiruvchi ONA YER qizi ekanligidan dalolat berib turibdi.

*IBN SINO*

*Shirin so'zin ayamasdan,  
Xabardon u baland pastdan,*

*Giyohlardan dori qilib,  
Davo sirin mudom bilit,*

*Dunyo bo'yab dong'i kelgan,*

*Xasta dilga najot elgan,*

*Sabibligin olam bilgan,*

*Bemorlarga malham qilgan,*

*Xalqimizning g'ururidir,*

*Sharafshoni sururidir,*

*Fog'day baland qadrimizda,*

*Yashar mudom qalbimizda,*

*Ibn Sino,*

*Ibn Sino... Malika ULUG'JAVA,*

*Toshkent viloyati, Qibray tumani.*

# YULDUZLAR

## KO'RINMAY QOLARMISH...

Yoz kunlarining birida buvim ikkimiz hovlimiz tagidagi supada yotardik. Allamahalgacha uyqimiz kelmay, osmondag'i yulduzlarga termulib yotdik. Buvimning aytishlaricha, hozir yulduzlar ancha xira tortib qolganmish. Avvallari osmon juda tiniq va beg'ubor bo'lgani uchun porlab turgan son-sanoqsiz yulduzlarni bema'lol ko'rish, ularning joylashishlariga qarab qay biri-qaysi turkumga kirishini bexato aytish mumkin bo'lgan ekan. Yulduzlarning nima sababdan xira tortib qolgan sababini so'rasam, ular og'ir xo'rsinib, shunday dedilar:

-Ilgarilari odamlar tabiatni juda ardoqlashardi. Hech kim hovli ko'chalarni changitib supurmas, xazonlarni yoqmas, chiqindilarni suvg'a oqizmasdi. Hozir esa...

Ular shunday deyishlari bilan ko'z oldimga mahallamizdan oqib o'tadigan kattagina ariq bo'yidagi axlat uyumi keldi. Yana tunov kungi voqe'a ham yodimga tushib ketdi: Ko'chasidagi xazon barglarini bir yerga to'plab, yoqib yuborayotgan Salimani Abdurkarim

**TEZ AYTISH**  
Tubsiz dengiz dengizmi,  
Dengiz tengsiz dengizmi?

Ahvol shu tarzda davom etaversa, keyinchalik miltillab turgan yulduzlar ham ko'rinnmay qolar, bizdan keyingi avlodlar ularni umuman ko'rishmas ekan-da, degan xayoldan dahshatga tushib ketdim.

Tabiatimiz sofligini, musaffoligini asrash bizning qo'limizda ekan, keling aziz do'stlarim, «ONA» deya e'zozlaydigan tabiatimizni xuddi onalarimizdek ardoqlaylik. Toki, osmonimiz musaffo bo'lsin, yulduzarimiz yanada charog'on porlayversin.

*Nilufar TOSHPO'LATOVA,  
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi  
102 - maktabning 7 - «V» sinf o'quvchisi.*

Onajonim - tabiat

Tabiatning  
biz bilgan-  
bil magan  
sinoatlari juda ko'p  
ekan. Sizlarga eng yaqin  
do'stimiz guvohi bo'lgan bir  
voqeani so'zlab bermoqchiman.

**TEZ AYTISH**  
Kimki yesa kishmish,  
Tishi qamashmasmish.

O'tgan yili yozda Aziz ismli  
do'stimiz dadasi bilan  
Afrika mamlakatlariga  
sayohatga  
bordi. Ular  
safaridan  
qaytishgan kuni do'stimizni  
ko'rgani chiqdik. Uning olgan  
ajoyibu g'aroyib foto suratlarini  
qiziqib tomosha qildik. Xajmi  
ham, ko'rinishi ham mittigina  
chumchuqni eslatuvchi bir  
qushning surati diqqatimni  
tortdi:

-Aziz, bu o'zimizning  
chumchuqmi?-so'radim  
do'stimdan.

-Yo'g-e, bu qushning  
nomi asaltopar.

-Ol-a, asal topadigan qush  
ham bo'larkanmi? Mana,  
sizlarga asal olib keldim, deb  
tumshug'ini ham tutadimi?  
kulguga oldik biz.

-Ishonmaysizlarmi?- dedi  
Azizjon gapimizdan biroz ranjib.  
So'ngra ichkaridan bir necha  
suratlar olib chiqib, bizga  
ko'rsatdi. Ulardan birida haligi

qushcha  
qorachadan  
kelgan,  
sochlari  
jingalak  
bolaning boshiga, ikkinchisida  
qo'liga qo'nib turgani aks

yaqinlashgach,  
qushchasini  
uchirib  
yubordi.  
«Pirr» etib  
uchib



## ASALTOPAR QUSHCHA

o'rmonga

kirib ketgan qushcha bir  
zumda qaytib chiqdi-da,  
Umidning boshi uzra aylana  
boshladi. Biz ham qushning  
ortidan ergashdik. Asalga  
yaqinlashgan sari qushchaning  
chirqirashi yanada avjiga  
chiqardi. Quvonganidan

Umidning boshi, yelkalariga  
qo'nib, qanotlarini silkita  
boshladi. U boshtagan yerga  
borsak, chindan ham asal serob,  
asalarilar g'ujg'on o'ynashardi...

-Eh, shu qushchani olib  
kelsang bo'larkan-da, biz ham  
mazza qilib asal yerdik,- dedi  
Malika hazil aralash.

-Olib kelardimu, ammo bu  
qushcha faqat Umidga o'rgangan  
ekan-da,- dedi Azizjon.

Bizning esa uning gaplariga  
ishonishdan o'zga choramiz  
qolmagandi.

*Nilufarxon BAHROMOVA,  
Nafis san'at litseyining  
10 - «A» sinf o'quvchisi.*



ettirilgandi.

-B u  
bolan ing  
ismi Umid,-  
deya o'z hikoyasini boshladi  
Aziz,-asaltopar qushcha haqida  
menga shu bola so'zlab berdi.  
Dastlab men ham, dadam ham  
uning gapiga ishonmadik.  
Shunda u bizni o'rmon tomonga  
boshladi.

O'rmonga

Aziz tengdoshlarim, e'tibor beryapsizmi,  
yurtimizning iqlimi tobora o'zgarib boryapti.  
Tabiat o'z mo'tadillagini yo'qotyapti. Ya'ni,  
namgarchilik, yog'ingarchilik kamayib  
bormoqda.

Bahorgi

yog'ingarchiliklarning  
kamayishi, qish faslida  
sanoqli kundardagina qor  
yog'ishini nazarda  
tu ty a p m i z .  
N a z a r i m i z d a  
tabiatdagi bunday  
o'zgarishlarda ham biz  
insonlarning qo'limiz borga  
o'xshaydi. Tabiatni o'z  
holicha avaylab-asrash  
o'rniga tog'u  
toshlardagi dov-  
daraxtlarni,  
archazorlarni yo'q  
qilib, ularni o'z manfaatlarimiz yo'lida ishlatib  
yuboryapmiz. Mutaxassislarining fikricha,  
archazorlar havodagi namni o'ziga tortish va  
shu bilan birgalikda tog' yon bag'irlarini  
mo'tadillashtirib turish xususiyatiga ega ekan...

Muammo va kamchiliklar haqida ko'p  
gapiramizu, ammo uning yechimi haqida

hammamiz ham o'ylab ko'ravermaymiz.  
Bizningcha, bu muammoning yechimi bordek.  
Birgina viloyatimiz misolida oladigan bo'lsak,  
bizda tog' yon bag'irlarini ko'p. Ana shu yerlarda

archazor va qarag'ayzorlar barpo  
etilsa. Bunday ishlarni hashar  
yo'li bilan qilsa ham  
bo'ladi. Yoshu qari  
bunday xayrli ishga  
bajonidil bosh  
qo'shishadi, deb  
o'ylaymiz. Axir  
yog'ingarchilik mo'l  
bo'lishini, o't-o'  
lanlar, maysazorlar  
yashnab turishini,  
demakki,  
hosilimizga,  
ro'zg'orimizga  
baraka kirishini kim

ham istamaydi deysiz?! Zero, hadisi sharifda:  
«Agar qiyomat qoyim bo'lishini bilsang  
hamki, qo'lingdagi navdani ekib qol», deb  
yozilgan ekan.

*Sitora va Gulhayo AKROMOVA,  
Samarqand viloyati, Pastdarg'om  
tumanidagi 29 - o'rta maktab o'quvchilarini.*

## ILHOM BERAR SENDAGI SEHR

Ey go'zal tabiat, husning betakror,  
Chechaklar burkamish o'ngu so'lingni.  
Fog'u toshlaring ham hatto maftunkor,  
Jondek aziz bilgum dashtu cho'lingni.

Ey ona tabiat, onamdek aziz,  
Har go'shang uyg'olar qalbimda mehr.  
Menga ilhom berar, ijodga undar,  
Sendagi tarixat, sendagi sehr.

*Yulduzoy BOYXONBOYEVA,  
Namangan shahridagi ixtisoslashgan  
litseyning 7 - «A» sinf o'quvchisi.*



## «GULSHAN» BOSHQOTIRMASI

Savollar:

1. Davlat.
2. Rassomlik yo'nalishi.
3. Buyuk zot.
4. Chaman.
5. Padari buzrukvor.
6. Madakaskar poytaxti.
7. O'quv quroli.



Tuzuvchi va rasm muallifi: Guljahan OTABOYEVA,  
Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanidagi 20 - maktabning 9 - «B» sinf o'quvchisi.

## FARZANDALARIM KO'P BO'LADI

Bugun mening tug'ilgan kunim, 14 bahorni qarshiladim. Hamma meni samimiyoq qutlayapti, tarbiyachi opalarim meni mahkam bag'irlariqa bosib, yuzlarimdan o'pib qo'yishyapti. Ular orasida faqatgina siz yo'qsiz, onajon...

Mana, umrimning 14 bahori ham ortda qoldi. Shu yillar mobaynida har kuni sizlarni kuta-kuta kunlarni kech qilganim, hech kimga sezdirmay tunlari yig'lab chiqqanim, erta tongda esa yana ne-ne orzu va ilinjlar bilan

yo'llaringizga intiq ko'z tikkanim o'zimgagina ayon.

Lekin hanuz sizlardan darak yo'q. Nima yomonlik qilgan ekanmanki, na siz, na otam menga mehr ko'rsatdingiz...

Y e y i s h - i c h i s h d a n , k i y i n i s h d a n hecham kamim

yo'q. Tarbiyachi opalarim ham xuddi onalardek mehribon. Lekin baribir ota-onal mehrining o'rnnini hech narsa bosolmas ekan...


Hademay ulg'ayib, Mehribonlik uyimizdan uchirma bo'lamic. Hayotda o'z o'rnimizni topishga, biror oliv o'quv yurtiga kirib o'qishga, biror kasbning boshini tutishga intilamiz. Keyin esa bir oilaning beki, bekasi bo'lamic. Men ham bir oilaning bekasi bo'laman, farzandlarim ko'p bo'ladi. Men ulardan bor mehrimni ayamayman, sevib, ardoqlab katta qilaman. Ammo meni bir narsa o'yantiryapti: ular mendan sizlarni so'rashsa, nima deb javob beraman? «Bobom, buvumnikiga olib boring, hamma o'rtoqlarim borishadi-ku», deya xarxasha qilishsa, ularni qanday ovutaman?..

Dadajon, oyijon, men sizlardan hech narsa talab qilmayman. Birgina o'tinchim: mendan ayagan mehringizni nabiralaringizdan ayamang. Axir ularning tomirida ham sizning qoningiz oqadi-ku!

*Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisining xatini bizga Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 34 - o'rta maktabning 7 - «A» sinf o'quvchisi Barno QAHRAMONOVA yetkazdi.*



Ona yurting - oltin beshing  
**TONG yulduzi**  
**Respublika bolalari va o'smirlarining yagona gazetasi!**  
Obuna indeksi: 198.



Maktabga ilk bora qadam qo'yganimda cheksiz mehr, iliq tabassum bilan qarshi olgan inson siyimosini aslo unutmayman. Bu inson menin birinchi o'qituvchim Salomat opa Nutfullayeva bo'ladi.

Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi 46-maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilariga saboq berib

tanlovlarida faol ishtirok etadilar. Yaqinda o'qituvchilar orasida o'tkazilgan «Ko'rgazmalar tanlovi»da qatnashib, tuman miyosida birinchi, viloyatda ikkinchi o'rinni egalladilar. Tuman miyosida o'tkazilgan «O'qituvchi» ko'rik-tanloving g'olibasi bo'lganlarida biz shogirdlarining ham boshimiz ko'kka yetdi.

## USTOZGA QANDAY SHOGIRDALAR KERAK?

kelayotgan ustozimizning pedagogik faoliyatlariga bu yil 25 yil to'ladi. Shu yillar mobaynida men kabi qanchadan-qancha shogirdlarni kamol toptirdilar. Salomat opa har bir darsga ijodiy yondoshadilar, o'zlarini yangicha dars etaplarini tashkil qiladilar. Darsdan tashqari turli kecha va tadbirlar uyushtirib, o'quvchilar qiziqishini orttiradilar.

Bizga dars beribgina qolmay, o'zlarini ham turli ko'rik va



ona tili va adabiyot f a n i g a chuqurlashtirilgan s i n f i m i z n i «iqtidorlilar sinfi» ham deyishadi. Bunday sharafli nomga sazovor bo'lishimizda, fanlarni qiyalmay b e m a l o l o'zlashtirishimizda Salomat opaning xizmatlari beqiyos.

Navniholni qanday eksang, parvarishlasang, u shunga monand bo'y cho'zadi, deyishadi-ku. Bizni ham bolaligimizdan oq bilimga chanqoq o'g'il-qiz qilib tarbiyalaganlari uchun Salomat opadan behad minnatdormiz. Yana bir gap, bizni gazetxon qilgan «Tong yulduzi»ga har biringiz albatta obuna bo'ling, deb undagan ham shu ustozimiz bo'ladi. Bu yil ham o'zlarini yuz o'quvchini albatta «Tong yulduzi»ga obuna qildirishga hissa qo'shishim kerak, deb yelib-yugurib yuribdilar. Biz esa undan ham ko'proq yozilib, ustozni xursand qilmoqchimiz. Chunki, gazeta o'qiganlar osongina kitobxonaga aylanadilar. Kitobxonlar esa aqlli, bilimli, ma'naviyatlari insonlardir. Ustozimizga esa ana shunday shogirdlar kerak.

Malika NUROVA.



*Bolalikda hamma inoq, do'st...*



**Boshqotirmani yechish uchun bo'sh kataklarga gullarning nomlarini to'g'ri joylashtirsangiz boshqotirmani yechgan bo'lasiz.**

**kala,  
karnaygul,  
lola,  
tikan,  
rayxon,  
ranogul,  
gulxayri.**

*Tuzuvchi: Bobur MURODOV, Toshkent shahri, Chilonzor tumanidagi 131-maktabning 6-«B» sinf o'quvchisi.*

Ota yurting - oltin beshing  
**TONG yulduzi**

*O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi*

**BOSH MUHARRIR:**  
Umida  
ABDUAZIMOVA.

**TAHIR HAY'ATI:**  
Turobjon JO'RAYEV,  
Shuhrat AHMEDOV,  
Botir UBAYDULLAYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(*Bosh muharrir o'rinnbosari*),  
Abdusaid KO'CHIMOV,  
O'ktam OHUNOV,  
Ergashvoy SARIQOV.

**Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida**  
N: 022 raqam bilan  
2003 yil 11 dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir  
**«O'zbekiston»**  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
Gazeta  
**«O'zbekiston»**  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Hajmi A-3,  
2 bosma taboq.  
Adadi - 11167  
Buyurtma N: J675

Dizayn va sahifalovchi:  
**Otabek ESHCHANOV.**  
Navbatchi:  
**Gulyuz ARIFJANOVA.**

Rassom:  
**Nodira MIRZAYEVA.**

Manzilimiz:  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
tong\_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-10-38  
144-38-10  
144-21-75

Tel./faks:  
(99871) 144-24-45